

Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksi tasdiqlandi



Davlat rahbarining 2023-yil 20-yanvardagi PQ—10-son qarori bilan ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksi tasdiqlandi. Har bir ichki ishlar organlari xodimi mazkur kodeksga soʻzsiz amal qilishi lozim. Ichki ishlar organlariga qabul qilinganlar uchun dastlabki sinov muddati bir yil etib belgilandi. Intizomiy jazo tariqasida lavozimidan ozod etiladigan xodimlarni boshqa sohaviy tuzilmaga oʻtkazish amaliyotiga chek qoʻyiladi. IIOga xizmatga birinchi marta qabul qilinadiganlar Malaka oshirish institutida 3 oylik boshlangʻich tayyorgarlikdan oʻtkaziladi.

Shunga asosan, Qaror bilan IIO kadrlar salohiyati darajasini oshirish boʻyicha kompleks chora-tadbirlar "yoʻl xaritasi" ham tasdiqlandi.